Mirzoyeva Nigora Shavkatjonovna, Abdisamatov Ozodbek	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishini takomillashtirish metodlari.....	605
Nishonova Ra'noxon Abdullojon qizi	
Borrowed Proper Nouns in English and Uzbek: a Comparative Analysis.....	608
Amirqulova Feruza Abdurashidovna	

Ingliz tilini o'qitishda autentik videolarning amaliy samaradorligi.....	613
Dusmurodova Iroda Quvonovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari samaradorligini ta'minlashda direktor va pedagog xodimlarning hamkorlikdagi faoliyati.....	616
Olimjonova Odina Hasanxon qizi	
Boshqaruv psixologiyasi terminlarini tarjima qilish muammolari va ularni hal qilish yo'llari.....	620
Dilafruz Norboyeva	
"Kommunikativ kompetensiya" tushunchasining xorijiy va milliy manbalarda talqini: qiyosiy tahlil.....	624
G'ulomova Begoyim Elmurod qizi	
Ijtimoiy tarmoqlardagi jinsiy jinoyatlarning psixolingvistik tomonlari	627
Rahimqulova Lobar Hamro qizi	
К вопросу обучения местоимению в корейском языке	631
Муҳиддинова Малика Батировна	
The Importance and its Development Models of Critical Thinking	634
Khasanova Shokhista Mirzaakhmad kizi	



MUSTAQIL O'ZBEKISTON SHAROITIDA REZERV VA ZAHIRADAGI OFITSERLAR TAYYORLASH TIZIMINING DOLZARBLIGI

ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ
SCHOOL EDUCATION
MAKTAB TA'LIMI



Aliyorov Alijon Bo'rievich
O'zbekiston Milliy universiteti,
Harbiy tayyorgarlik o'quv markazi katta o'qituvchisi



Teshaboyev To'liqinboy Yoqubovich
O'zbekiston Milliy universiteti,
Harbiy tayyorgarlik o'quv markazi tsikl boshlig'i

Abstract: Dunyo shiddat bilan o'zgarayotgan, mintaqalar va davlatlar o'rtasida siyosiy, iqtisodiy va mafkuraviy kurashlar tobora keskinlashayotgan bir sharoitda, Respublikamizda nafaqat Qurolli Kuchlar qo'shinlari safida xizmat vazifasini bajarayotgan harbiy xizmatchilar, balki qo'shinlarda harbiy xizmatni o'tamagani holda maktab o'quvchisidan tortib to oliy ta'lim muassasalari talabalarigacha bo'lgan yoshlarni Vatan himoyasi kabi ulug' vazifani zimmasiga ishonch bilan oladigan, harbiy-siyosiy vaziyatni chuqur tahlil qila oladigan, jang sharoitida o'zini yo'qotmay, murakkab holatlarda to'g'ri qaror qabul qila oladigan darajadagi vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimining takomillashuvi va rivojlanishi uchun asos yaratilmoqda. Rezerv va zahiradagi ofitserlarni tayyorlash bugungi kunda eng dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi.

Key words: rezerv va zahiradagi ofitser, harbiy kafedra, harbiy hisob ixtisosligi, harbiy tayyorgarlik, qo'shinlardan tashqarida rezerv va zahiradagi ofitserlarni tayyorlash, oliy ta'lim muassasasi (OTM), harbiy oliy ta'lim muassasasi (HOTM).

Annotatsiya: In today's rapidly changing world, where political, economic and ideological struggles between regions and states are becoming increasingly intense, the Republic of Uzbekistan serves as a foundation for improving and developing the system of educating not only military personnel serving in the Armed Forces but also young people – from schoolchildren to university students who are not in military service – in the spirit of patriotism. This system ensures the upbringing of a generation capable of confidently undertaking the noble duty of defending the Motherland, deeply analyzing the military-political situation, maintaining composure in combat conditions, and making correct decisions in complex situations. The training of reserve officers is among the most urgent issues of the present time.

Kalit so'zlar: reserve officer, military department, specialization in military accounting, military training, training of reserve officers outside the army, higher educational institution (HEI), higher military educational institution (HMEI).



Аннотация: В условиях стремительно меняющегося мира, где политическая, экономическая и идеологическая борьба между регионами и государствами становится всё более ожесточённой, Республика Узбекистан служит основой для совершенствования и развития системы воспитания не только военнослужащих, проходящих службу в Вооружённых Силах, но и молодёжи – от школьников до студентов высших учебных заведений, не проходящих военную службу в армии, – в духе патриотизма. Это позволяет подготовить поколение, способное уверенно взять на себя великое дело защиты Родины, глубоко анализировать военно-политическую обстановку, не теряться в боевых условиях и принимать правильные решения в сложных ситуациях. Подготовка офицеров запаса является одной из самых актуальных тем современности.

Ключевые слова: офицер запаса, военная кафедра, специализация по военному учёту, военная подготовка, подготовка офицеров запаса вне армии, высшее учебное заведение (ВУЗ), высшее военное учебное заведение (ВВУЗ).

KIRISH

Zahiradagi ofitserlarni tayyorlash amaliyotini o'rganish orqali shuni kuzatish mumkinki, har bir davlat Qurolli Kuchlari oldiga qo'yilgan vazifalarning muvaffaqiyatli hal etilishiga, asosan yuqori darajada harbiy kasbiy tayyorgarlikka hamda ilmiy salohiyatga ega bo'lgan mutaxassislar, ofitser kadrlarni tayyorlash orqali erishiladi. Hozirgi kunda yuqori darajada kasbiy mahoratga ega bo'lgan ofitser kadrlarni tayyorlash bo'yicha tayyorgarlik tizimining turli ko'rinishlari va strategiyasi mavjud bo'lib, zamonaviy armiya kadrlar ta'minot tizimining shartli elementlari mutaxassislarning ma'lumoti va ilmiy darajasiga bog'liq bo'lib qoldi. Harbiy kadrlarni tayyorlash tizimi har bir mamlakatning o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda turli xil ko'rinishda amalga oshirilib, dunyoda yuzaga kelayotgan harbiy-siyosiy vaziyatga qarab takomillashtirib borilmoqda. Mamlakatda safarbarlik e'lon qilinganda, qurolli kuchlarni harbiy holatdagi shtat bo'yicha ofitserlar bilan to'ldirish uchun barcha armiyalarda zahiradagi ofitserlar tayyorlanib boradi.

Zahiradagi ofitserlarni tayyorlashning bir necha ko'rinishlari mavjud. Shulardan birinchisi – haqiqiy harbiy xizmatdagi ofitserlarning zahiraga bo'shatilishi uchun qonunda belgilangan yoshga yetib bormasdan muddatdan oldin, haqiqiy harbiy xizmatdan zahiraga bo'shatilishi. Ikkinchisi – fuqarolarning harbiy xizmatni o'tash tartibi to'g'risidagi qonunga ko'ra, harbiy xizmatga chaqirilib, qonunda belgilangan muddat davomida xizmat vazifasini o'tayotgan muddatli harbiy xizmatchilarning qisqartirilgan maxsus dastur orqali o'qitilib, ofitser unvoni bilan zahiraga bo'shatilishi. Uchinchisi – ta'lim muassasalari talabalar tarkibidan harbiy tayyorgarlik bo'yicha o'quv dasturi asosida tayyorgarlikdan o'tishi natijasida zahiradagi ofitser unvonining berilishi.

XXI asrga kelib, davlatlar xavfsizligiga tahdid soladigan ehtimoliy xavf, ro'y berayotgan jangovar harakatlar ssenariysi hamda qo'shinlarning jangovar qo'llanilishi mamlakat Qurolli Kuchlarining takomillashuvi va rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Respublikamizda faoliyat olib borayotgan Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Harbiy tayyorgarlik o'quv markazida oliy ta'lim muassasalari talabalaridan rezerv va zahiradagi ofitserlarni tayyorlash bo'yicha olib borilayotgan islohotlarning bir natijasi bo'lib, Qurolli Kuchlar safini rezerv va zahiradagi ofitserlar bilan to'ldirish uchun zamin hisoblanadi. Mazkur ishda dunyoda yuzaga kelgan harbiy-siyosiy vaziyatning o'zgarishi natijasida Qurolli Kuchlar tizimiga qo'yiladigan talabning ham o'zgarib takomillashib borayotgani, tarixiy faktlarga va harbiy manbalar tomonidan berilgan ma'lumotlar asosida yuzaga kelgan o'zgarishlar, xususan rezerv va zahiradagi ofitserlar tayyorlash tizimi rivojlanish tendensiyasi qiyosan tahlil qilindi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Buyuk Britaniya qurolli kuchlaridagi mavjud ofitserlarning 30 % ini zahirada tayyorlanib, keyinchalik haqiqiy harbiy xizmatga chaqirilgan ofitserlar tashkil etadi. Bu ofitserlarning tayyorgarlik darajasiga NATO qo'mondonligi tomonidan Iroq qurolli kuchlariga qarshi o'tkazilgan "Cho'l bo'roni" operatsiyasi davomida ijobiy baho berilgan. Ushbu tayyorgarlik iqtisodiy jihatdan ham tejamkor hisoblanadi. Masalan, muhandislik ixtisosligi bo'yicha harbiy oliy ta'lim muassasasida bir nafar mutaxassisni tayyorlash uchun o'rtacha 100 ming dollar sarf qilinadigan bo'lsa, oliy ta'lim muassasasi (keyingi o'rinlarda – OTM)da o'quv jarayonidan ajralmagan holda xuddi shunday mutaxassisni tayyorlash uchun 40 ming dollar, ya'ni 2,5 baravar kam xarajat sarf qilinishini ko'rish mumkin.

OTM talabalar uchun harbiy tayyorgarlik bo'yicha o'quv jarayoni, harbiy tayyorgarlikka jalb qilingan talabalar bilan haftasiga 2–4 soatdan 1–2 marta mashg'ulot o'tish, yig'inlar (oyda 1–2 marta) tashkil etish orqali amalga oshiriladi. Harbiy tayyorgarlik bo'yicha o'quv yili yozgi ta'vil davrida ikki haftalik yig'in o'tkazish bilan yakunlanadi. Ushbu kurslarning faoliyati OTMning harbiy tayyorgarlik qo'mitasi tomonidan boshqariladi (bu qo'mita tarkibiga rektorat vakillari, harbiy kafedra boshlig'i kiradi. Mashg'ulot rahbarlari va yo'riqchilar xizmat o'tayotgan hamda zahiraga bo'shatilgan ofitserlardan shakllantiriladi) [3, 12–14-b.].



Germaniyada an'anaviy usulga tayangan holda zahiradagi ofitserlar tayyorlanadi. Bundesverda uchta yo'nalish mavjud: birinchisi – haqiqiy harbiy xizmatni o'tab, belgilangan tartibda zahiraga bo'shatilgan ofitserlar va kontrakt asosida yollangan mutaxassis ofitserlar zahira uchun ro'yxatga olinadi. Ikkinchisi – haqiqiy harbiy xizmatga chaqirilgan hamda muddatli harbiy xizmatni o'tab, zahiraga bo'shatilgan harbiy xizmatchilardan zahiradagi ofitserlar tayyorlanadi. Uchinchisi – OTMni tugallagan va mutaxassisligi harbiy mutaxassislikka turdosh bo'lgan fuqarolardan zahiradagi ofitserlar tayyorlanadi. Germaniyada qo'shinlardan tashqarida ofitserlarni tayyorlash mavjud emas, barcha mutaxassisliklar bo'yicha ofitserlarni tayyorlash faqat qo'shinlar sharoitida amalga oshiriladi [4, 14–15-b.].

Fransiyada ofitserlarni tayyorlash bo'yicha 80 dan ortiq HOTM va 50 dan ortiq OTM shug'ullanadi. Bundan tashqari, o'rta ta'lim muassasalari, Parijdagi litseyler ham zahiradagi ofitserlarni tayyorlashda ishtirok etadi. Harbiy manbalarning ma'lumot berishicha, oxirgi yillarda oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining harbiy sohaga qiziqishi ortib, harbiy xizmatni davom ettirishga ariza berganlar soni HOTM bitiruvchilariga nisbatan ko'payganini kuzatish mumkin. Mamlakat bo'yicha butun ofitserlar korpusining 30 % ini zahiradagi ofitserlar tashkil etadi. Bularning 50 % dan ortig'i texnik profildagi OTMlarga to'g'ri keladi, qolganlari huquqshunoslik, iqtisodiyot, savdo, boshqaruv va boshqa ta'lim yo'nalishlariga to'g'ri keladi. 1986–yildan boshlab barcha tibbiyot instituti bitiruvchilari uchun harbiy tibbiy tayyorgarlik bo'yicha kurs (Liburn shahri)dan o'tish majburiy qilib belgilangan. Unda zahiradagi ofitserlarni tayyorlash bo'yicha o'quv dasturi asosida mashg'ulotlar olib boriladi [5, 14-b.].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi mazkur mavzu doirasida zarur bo'lgan ma'lumotlarni yig'ish, ularni ilmiy asosda qayta ishlash va tahlil qilish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Ma'lumotlar asosan normativ-huquqiy hujjatlar, davlat qaror va farmonlari, mavjud ilmiy adabiyotlar, xorijiy tajribalar hamda statistik manbalar orqali olindi. Shuningdek, ochiq elektron bazalar va ilmiy maqolalardan foydalanildi. Olingan ma'lumotlar taqqoslash, qiyosiy tahlil va umumlashtirish usullari yordamida tartibga keltirildi. Statistik ko'rsatkichlar dinamik o'sish va mavjud farqlarni aniqlash asosida tahlil qilindi. Xorijiy tajribalar bilan mahalliy sharoit qiyoslanib, o'zaro farqli va o'xshash jihatlar belgilab chiqildi. Yakuniy bosqichda olingan natijalar ilmiy asoslangan xulosalar shakllantirish uchun tizimlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

AQShda zahiradagi ofitserlarni tayyorlash qo'shinlardan tashqarida (ROTC – Reserve Officers Training Corps)da amalga oshiriladi. Mamlakatda 280 dan ortiq OTM va kollejlarda quruqlikdagi qo'shinlar uchun, 140 dan ortiq OTMda esa harbiy havo kuchlari uchun, 50 dan ortiq OTMda harbiy dengiz kuchlari uchun jami 470 dan ortiq OTM va kollejdagi zahiradagi ofitserlar tayyorlanadi. ROTC kurslarining xususiyati shundan iboratki, bunda oliy ta'lim muassasalari va kollejlarda harbiy tayyorgarlikni tashkil etish uchun Mudofaa vazirligining o'zi manfaatdor hisoblanadi. Yangi harbiy oliy ta'lim muassasalarini tashkil etmasdan, qurolli kuchlarni ofitser kadrlar bilan to'ldirishda OTMlarning imkoniyatlaridan foydalanish ushbu tayyorgarlik tizimining asosini tashkil etadi. Bu tizimda asosan bo'lajak harbiy vrachlar, fiziklar, kimyogarlar, muhandislar va boshqa mutaxassislar tayyorlanib boriladi.

Zahiradagi ofitserlarni tayyorlash to'rt yil muddatga mo'ljallangan o'quv dasturi asosida amalga oshirilib, u ikki qismdan – asosiy va takomillashtirilgan kurslardan iborat. Asosiy kursda mamlakatning milliy mudofaa asoslari, harbiy tarix, quruqlikdagi qo'shinlar vazifasi, qurolli kuchlarda mavjud qurollar, aloqa vositalari va boshqalar o'rganiladi. Kursda harbiy tayyorgarlik mashg'ulotlari haftasiga 3 soatdan o'tkaziladi. Talabalarni ROTCga qabul qilish sharti – kursni tugatib, kamida 3–4 yil davomida qurolli kuchlar qo'shinlarida xizmat qilish hisoblanadi [4, 3-b.].

2010–yilga kelib, AQSh qurolli kuchlari armiyasining 38,5 % yosh ofitserlari ushbu tizim orqali tayyorgarlikdan o'tgan, shundan 1,8 % AQSh dengiz piyodalari qo'shinlari (zahiradagi ofitserlarni tayyorlash Dengiz korpusi orqali), 16,7 % harbiy dengiz floti, 38,1 % harbiy havo kuchlari, jami Mudofaa departamentining 30 % ofitserlari ushbu tizim orqali tayyorgarlikdan o'tgan. ROTCda harbiy tayyorgarlik o'zaro musobaqa va har bir o'quvchining individual qobiliyatini inobatga olgan holda tashkil etiladi. Tayyorgarlik so'ngida bitiruvchilarning 25 % ofitser kadrlar sifatida xizmatni davom ettirish imkoniyatini qo'lga kiritadi, qolgan 75 % bitiruvchilar esa zahiradagi xizmatini davom ettiradi. Eng yaxshi deb topilgan 3 nafardan 5 nafargacha bitiruvchilar mutaxassislik va xizmat o'tash joyini tanlash huquqini qo'lga kiritadilar. Mutaxassislik bo'yicha ta'lim ushbu o'quv dasturini tugallaganidan keyin ofitserlarni tayyorlash maxsus kurslarida, davomiyligi mutaxassislik turiga qarab 3 oydan 7 oygacha bo'lgan davrda amalga oshiriladi [6, 138–142-b.].

Rossiyada oliy ta'lim muassasalarining harbiy kafedralarida, shuningdek 2008-yildan boshlab esa oliy ta'lim muassasalarida tashkil etilgan HTOM (harbiy tayyorgarlik o'quv markazi)larda amalga oshiriladi. Oliy ta'lim muassasasida ta'lim olayotgan talaba o'quv jarayonidan ajralmagan holda harbiy tayyorgarlik uchun vaqt ajratadi. Harbiy o'quv markazi talabasi harbiy xizmatchi hisoblanmasa-da, oliy ta'lim muassasasini tugallaganidan keyin Mudofaa vazirligi bilan shartnoma tuzishga majbur. Shunday qilib, HÖM tizimi Oliy ta'lim muassasasi imkoniyatlaridan qurolli kuchlar maqsadi uchun foydalanishni amalga oshiruvchi oraliq vosita hisoblanadi [7, 188–192-b.].

Yuqori darajada kasbiy mahoratga ega bo'lgan ofitserlarni tayyorlash va harbiy oliy ta'lim tizimini tashkil etish bo'yicha tayyorgarlikning turli ko'rinishlari va strategiyasi mavjud. Deyarli ko'pchilik davlatlarda qurolli kuchlarni kadrlar bilan ta'minlash vazifasi maxsus HOTMlarning zimmasiga yuklatilgan. HOTM harbiy kadrlarni tayyorlashning asosiy yadrosi bo'lishiga qaramasdan, ular yuqori darajada kasbiy mahoratga ega bo'lgan harbiy kadrlarni tayyorlash uchun zarur bo'lgan barcha vazifalarni bajarishda imkoniyatlari yetarli emas. Zamonaviy qurolli kuchlarning yuqori texnologik xususiyatga ega bo'lib borayotgani, tor yo'nalishlar bo'yicha ko'p sonli mutaxassislariga talabning ortib borishi hamda kadrlar ta'minotining tejamkor yo'lini topish ofitser kadrlar tayyorlash korpusining yana bir turini tashkil etishni taqozo qiladi.

Yaqin kunlarga ushbu vazifani Respublikamizda mavjud oliy ta'lim muassasalarining harbiy kafedralari, al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari institutining maxsus fakulteti bajarib kelmoqda edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 24-oktabrdagi PQ-4496m-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida zahiradagi va rezervdagi ofitserlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida" qarori talablari ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Milliy universiteti harbiy kafedrasida bazasida Harbiy tayyorgarlik o'quv markazi tashkil etildi. Harbiy tayyorgarlik o'quv markaziga Toshkent shahrida joylashgan oliy ta'lim muassasalari (O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent davlat texnika universiteti, Toshkent davlat yuridik universiteti, Toshkent xalqaro Vestminster universiteti, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Toshkent davlat agrar universiteti, Toshkent davlat transport universiteti, Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislik instituti, Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti, Toshkent kimyo texnologiya instituti, Toshkent moliya instituti)ning kunduzgi bo'limida tahsil olayotgan, 27 yoshgacha bo'lgan 2-bosqich erkak talabalar tanlov asosida saralab olinadi.

Harbiy tayyorgarlik o'quv markazida ta'lim olish uchun talabalarni saralash tanlovining asosiy mezonlari: tibbiy ko'rik, shaxsiy-ruhiy o'rganish, OTMd ta'lim olish jarayonida o'zlashtirilgan bilim darajasi natijalari, umumijsoniy tayyorgarlik, chaqiriqqacha boshlang'ich tayyorgarlik dasturi bo'yicha bilim darajasi. Sog'ligi bo'yicha harbiy xizmatga yaroqli va tanlovdan muvaffaqiyatli o'tgan oliy ta'lim muassasalari talabalari quyidagi 30 ta harbiy hisob mutaxassisliklari bo'yicha "Zahiradagi va rezervdagi ofitserlarni tayyorlash o'quv dasturi" asosida harbiy tayyorgarlik mashg'ulotlariga jalb qilinadi. Mashg'ulotlar harbiy kun usuli (faqat harbiy tayyorgarlik)da o'tkaziladi. Bunda o'quv mashg'ulotlari uchun kuniga 6–8 soat vaqt ajratiladi. Mashg'ulotlar Harbiy tayyorgarlik o'quv markaziga tanlov asosida saralab olingan professor-o'qituvchilar tomonidan olib boriladi, ularning asosiy qismini rezervdagi ofitserlar tashkil etadi.

Harbiy tayyorgarlikning yakuniy bosqichi – o'quv yig'ini hisoblanadi. O'quv yig'ini talabalarining auditoriya mashg'ulotlarida olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash, mutaxassisliklar bo'yicha majburiyatlarni bajarishda amaliy ko'nikmalarni takomillashtirish, o'qotar qurollardan otish mashqlarini amaliy bajarish va harbiy tayyorgarlik bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish hamda talabalarni Vatanga qasamyodga keltirish uchun mo'ljallangan. O'quv yig'iniga harbiy tayyorgarlik bo'yicha barcha turdagi nazoratlardan ijobiy baholangan talabalar jalb qilinadi. Harbiy tayyorgarlikni o'tab bo'lgach, nazoratning barcha turlarini muvaffaqiyatli topshirgan, o'quv yig'inidan o'tgan talabalar harbiy tayyorgarlik bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasiga jalb qilinadi. Harbiy tayyorgarlik bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasini va bakalavriatning to'liq kursini muvaffaqiyatli yakunlagan talabalarga belgilangan tartibda "leytenant" harbiy unvoni beriladi va ular haqiqiy harbiy xizmatga chaqiriladi yoki rezerv yoxud zahiraga o'tkaziladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-apreldagi "Jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida professional kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5077-sonli qaroriga ko'ra, Milliy gvardiya Harbiy-texnik instituti O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti etib qayta tashkil etildi. 2021/2022 o'quv yilidan boshlab universitetda joriy etilayotgan ta'lim tizimiga muvofiq o'qitishni yo'lga qo'yish rejalashtirildi. Umumiy asoslarda kadrlar tayyorlashni to'lov-kontrakt asosida amalga oshirish va bitiruvchilarga "zahiradagi ofitser" harbiy unvoni hamda tegishli mutaxassislik bo'yicha diplom berish to'g'risidagi Milliy gvardiya va Ichki ishlar vazirligining takliflari qondirildi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-apreldagi "Jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida professional kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5077-sonli qarori: <https://lex.uz/ru/docs/-5377545>



XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Rivojlangan davlatlarda zahiradagi ofitserlarni tayyorlash tizimini o'rganish maqsadida mutaxassislarning xizmat safarini va o'quv kurslarida ishtirokini tashkil etish.
2. Harbiy tayyorgarlik mashg'ulotlarida yuqori natijalarga erishgan OTM talabalarini moddiy jihatdan rag'batlantirish tizimini joriy etish.
3. O'quv jarayoniga fan, texnika va ta'lim texnologiyalarining eng so'nggi natijalarini tatbiq qilib borish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda harbiy oliy ta'lim muassasalari bilan doimiy hamkorlik o'rnatish.
4. Zahiradagi va rezervdagi ofitserlar bilan tizimli ravishda o'quv yig'inlarini tashkil etish, kollej va litseylarda turdosh mutaxassisliklar bo'yicha qurolli kuchlar uchun zahiradagi kichik mutaxassislarni tayyorlash va zarurat tug'ilganda ularni harbiy xizmatga chaqirish masalasini ko'rib chiqish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 24-oktabrdagi PQ-4496m-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida zahiradagi va rezervdagi ofitserlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida" qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-apreldagi PQ-5077-sonli "Jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida professional kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori.
3. Fil'kov S. Podgotovka ofitserov zapasa v stranakh Zapadnoy Evropy // Zarubezhnoye voyennoye obozreniye. – 1996. – №6. – S. 12–14.
4. Fil'kov S. Podgotovka ofitserov zapasa v stranakh Zapadnoy Evropy // Zarubezhnoye voyennoye obozreniye. – 1996. – №6. – S. 14–15.
5. Fil'kov S. Podgotovka ofitserov zapasa v stranakh Zapadnoy Evropy // Zarubezhnoye voyennoye obozreniye. – 1996. – №6. – S. 14.
6. Serov E.O. O sisteme vnevoyskovoy podgotovki amerikanskoy molodyoji // Krasnaya zvezda. – 1989. – 20 yanvarya. – S. 3.
7. Khamula L.A., Khamula A.Ya. Podgotovka ofitserov rezerva na kursakh vnevoyskovoy podgotovki (ROTC) v sukhoputnykh voyskakh SShA // Istoricheskaya i sotsial'no-obrazovatel'naya mysl'. – 2012. – №1. – S. 138–142.
8. Sokol L.N., Yarulin I.F. Uchebnye voyennye tsentry – sovremennaya sistema professional'noy podgotovki ofitserov Vooruzhennykh Sil Rossii // Gosudarstvennoye i munitsipal'noye upravleniye. Uchenye zapiski. – 2017. – №4. – S. 188–192.
9. <https://lex.uz>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.